ISSN 2181-3187

# MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA AQLIY RIVOJLANISH JARAYONI

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

***Akramjonovna Feruza Akramjonovna***

*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich*

*talabasi* ***Qurbonova Muyassar Muzaffar qizi.***

**Annotatsiya:** Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy rivojlanish - bu tafakkur, eslab qolish, mulohaza qilish, mantiqiy fikrlash, til o'rganish va boshqa qobiliyatlar shakllanish jarayonidir. Bu davrda o'z atrofidagi dunyoni tushunishga, yangi ma'lumotlarni qabul qilishga va unga moslashishga harakat qiladi. Aqliy rivojlanishning asosiy jarayonlari bolalarda til rivojlanishi, xotira va diqqatni jamlashga, mantiqiy fikrlash va tasavvur qobiliyatining ortishi kabi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlari:** pedagogik yordam, ijtimoiy muhit, diqqatni jamlash, aqliy rivojlanish, maktabgacha yosh tafakkur, xotira, mantiqiy fikrlash.

**Абстракный**: Умственное развитие детей дошкольного возраста – это процесс формирования мышления запоминания рассуждения мышления изучения языка и других навыков. В этот период он пытается понятб окружающий мир принять новую информацию и адаптироватбся к ней . К основным процессам психического развития относятся изменения в речевом развитии детей памяти и концентрации внимания логическом мышлении и воображении .

**Ключевое слово.** Психическое развитие дошкольный возраст детская психология мышление память педагогическое сопровождение социалбное окружение концентрация внимания .

**Abstract** : Mental development in preschool children is the process of formation of thinking , remembering , reasoning , logical thinking , language learning and other skills . During this period he to understand the world around him accept new information and adapt to it . The main processes of mental development include changes in children’s language development , memory concentration , logical thiking and imaginatio pedagogical support social environment , concentration.

**Keyword:** Pedagogical support , social , environment , concentration , mental development pre-school thinking , memory , logical thinking.

Bugungi kunda bolalarda aqliy rivojlanishdan orqada qolayotgan bolalar ko’plab uchraydi, buning oldini olish uchun bolalar tarbiyasi boshidan to’g’ri olib borish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy rivojlanishning markaziy omillar-ijtimoy muhit, oilaviy sharoit, o’yin va ta’lim faoliyati bilan bog’liqdir. Bolalar shu yoshda ko’plab yangi tajribalarga ega bo’lib, ular orqali bilim va ko’nikmalarni rivojlantiradi. Shu bilan birga psixologik va pedagogik yordam, o’qituvchilarning va ota onalarning yordami bolalarning aqliy rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatadi.

Maktabgacha yosh darvri bolalar hayotidagi rivojlanishdan biri hisoblanadi. Bu davrda ularning aqliy qobiliyatlari, tafakkurlash tarzlari va ta’limga nisbatan yondashuvlari shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy munosabatlari va o’qituvchilar bilan muloqoti, balki, oilaviy muhit va keng jamiyatdagi o’zaro ta’sir orqali ham amalga oshadi. Mantiqiy fikrlash va taqdid qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bolalarda xotira va diqqatni jamlash, qobiliyatlarni hamda o’rganish va o’rganilgan ma’lumotlarni uzoq muddat eslab qolish uchun zarur hisoblanadi.

Pedagoglar bolalarga yengil va qiziqarli yondashuvlar orqali darslarni o’qitishlari kerak. Ta’lim jarayonida ko’proq o’yinlar, didaktik mashqlar, amaliy

ISSN 2181-3187

faoliyatlar va qiziqarli mashg'ulotlar qo'llashi lozim. Shuningdek, ota – onalar ham bolalarining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, ular bolalariga uyda o'yinlar o'ynatish, kitoblar o'qish va turli faoliyatlar bilan shug'ullanish orqali o'z yordamlarini berib borishadi.Aqliy rivojlanish jarayoni maktabgacha yoshdagi bolalarda asosan ilk bosqich hisoblanadi.Bola har bir jarayonda faol bo'ladi.Aqliy faoliyatini shakllantirishda maktabgacha yosh davri xususiyatlari asosiy omil hisoblanadi.

**Xulosa:** Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy rivojlanishi murakkab va ko'p jihatli jarayon. Bolalar aqliy rivojlanishini to'g'ri yo'naltirish, ularning yuqori samarali va muvaffaqiyatli rivojlanishiga yordam beradi. Ota – onalar o'qituvchilar va jamiyat aqliy rivojlanish uchun qulay sharoitlar yaratish orqali bolalar kelajagiga mustahkam asos qo'yadilar . Bolalarni har taraflama aqliy va manaviy jihatdan yetuk bo'lib yaxshi inson hamda yaxshi kadr bo'lib yetishi uchun ota – onalar va pedagoglar hissasi juda katta bolalardi yosh avlodi nihol deb bilsak unga qanday shakl bersak shunday katta bo'ladi shunday ekan yoshlar hayotiga befarq bo'lmaylik.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1.Vygotskiy, L.S. Bolalar psixologiyasi. Moskva: Pedagogika, 1984.

2.Davydov, V.V. Bolalik psixologiyasi va ta'lim. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2010.

3.Hasanboeva, M.Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent: Ilm Ziyo, 2017

4. Akramjonova F."Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion ta'limning jarayonining ahamiyati."-Tadqiqotch,i2024

5. Akramjonova, F. A. (2023). Maktabgacha ta'limda pedagog professiogrammasini tashkil etishning asosiy jarayonlari. Science and Education, 4(12), 481-485.

6. Kamolova A.O., & Akramjonova F.A. (2024). PEDAGOGIK FAOLIYAT JARAYONLARIDA INNAVATSION TA'LIM JARAYONLARI ORQALI

ISSN 2181-3187

PEDAGOGLAR SALOMATLIGINI SAQLASH. Экономика и социум, (6-1 (121)), 302-305.

**Internet manbalari:**

1.O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining rasmiy sayti:

2.**www.maktabgacha.uz**